

QORAQOLPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SARIMSOQ PIYOZ YETISHTIRISHNI ILMIY ASOSDA TASHKIL ETISH

Dilshodbek Sherimov Shavkat o'g'li

*Qoraqolpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti
“Sabzavotchilik” ta'lif yo'nalishi tayanch doktoranti.*

E-mail:dilshodbeksherimov77@gmail.com

Tel: +99899 347 87 77

Annotatsiya: O'zbekiston tuproq iqlim sharoiti Markaziy Osiyodagi boshqa hududlarga nisbatan sabzavot ekinlarini yetishtirish uchun qulayligi bilan ajralib turadi. Qoraqolpog'iston esa respublikamizning boshqa viloyatlariga nisbatan murakkab iqlim sharoitliligi bilan ajralib turadi. Albatta bu sharoitda sarimsoq piyoz singari sovuqqa bardoshli o'simliklarni yetishtirish uning maydonini kengaytirish, yangi navlarini iqimlashtirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu esa sarimsoq piyoz yetishtirishning texnologik elementlarini ishlab chiqishni taqoza qilmoqda.

Kalit so'zlar: Oziq ovqat muammosi, sarimsoq piyoz, to'qsonbosti usulda yetishtirish, sho'rланish, nav, “ko'chatlab” yetishtirish.

Dunyoda sodir bo'layotgan oziq – ovqat muammosini bataraf qilishda ya'ni iste'mol xavfsizligini ta'minlashda sabzavot mahsulotlarini ko'paytirish, sifatli va ekologik toza mahsulotlar yetishtirish hozirgi kun talabidir. Ayni vaqtida olimlarning hisob kitoblariga ko'ra 2050-yilga borib jahonda aholi soni 9 mlrd ga yetishi taxmin qilinmoqda tabiiyki bunday vaziyatda yer yuzida yashayotgan insonlarning sifatli va tabiiy mahsulotlarga insonlarning talabi ortishi yildan yilga ko'payib boradi. Albatta bu masalaning yechimi qishloq xo'jaligi ekinlaridan yetishtirilayotgan ekinlarning birinchi navbatda turlarini kengaytirish ulardan olinadigan hosilning miqdorini jadal orttirish va ekologik tozaligini ta'minlash bilan yechiladi. Bugungi kungacha oziq ovqat masalasini yechishda g'alla va paxtadan olinadigan mahsulotlar hissasiga to'g'ri keladi. Endi bu ko'rsatkichlarni meva, sabzavot hamda poliz ekinlaridan olinadigan hosil bilan ham boyitib borish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.


Hukumatimiz tomonidan sabzavotchilik tarmog'ini tez sur'atlarda rivojlantirib borishda ko'plab amaliy ishlar olib borish uchun farmon, qaror va nizom osti hujjatlari qabul qilingan bo'lib bu ishlarni qonuniy yo'l bilan mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda so'nggi yillarda aholini oziq ovqat xususan, sabzavot maxsulotlariga bo'lgan extiyojini to'la qondirish maqsadida sabzavotchilik tarmog'ida keng tarmoqli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasini Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlish

to'g'risida" gi PF - 5853-son farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida bajarilishi kerak bo'lган ishlар tizimli turda keltirib o'tilgan bo'lib bunda eng asosiy masala sabzavot, poliz va kartoshka yetishtirishni tashkil qilish undan tashqari sabzavot ekinlarning assortimentini orttirishga yo'naltirilgan ishlarni kompleks ishlab chiqish bo'yicha ishlар belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sarimsoq piyoz hamda to'qsonbosti usulida sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va eksport qilishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2020 - yil 15 - oktyabrdagi PQ - 4863-son qarori: Bunda ekin maydonlari va aholi tomorqalaridan oqilona foydalanish, eksbortbop qishloq xo'jaligi mahsulotlari, shu jumladan sarimsoq piyoz yetishtirish va eksport qilish hajmlarini ko'paytirish, kambag'allikni qisqartirish va aholining moddiy manfaatdorligini oshirish borasidagi ishlар tizimli davom qildirish maqsadida. Qoraqolpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklarining 2021-2022 yillari hosili uchun avgust piyozi, sarimsoq piyozi va to'qsonbosti usulida sabzavot mahsulotlarini yetishtirish hajmlarini ishlab chiqish bo'yicha ko'plab takliflar berilgan Yana qarorda shunga alohida to'xtatilib o'tilgan-ki, avgust piyozi, sarimsoq piyozi va to'qsonbosti usulida sabzavot mahsulotlarini yetishtirish bilan shug'ullanayotgan fermer, dexqon va tomorqa yer egalariga yer ajratish bo'yicha yengilliklar yaratish, ularni qo'llab quvvatlash bo'yicha uzoq muddatli bank kreditlarini taqdim qilish eng asosiysi sarimsoq piyoz ustida loyixalar ishlab chiqish ularni moliyalashtirish, ya'ni ilmiy tadqiqot ishlariga ichki va xalqaro davlat grantlarini ajratish, o'zini oqlagan loyixalarni amaliyatga va ishlab chiqarishga undan tashqari hozirgi paytda eng ko'p mahsulot yetishtirish bo'yicha fermer, dexqon va tomorqa yer egalariga sabzavotchilik tavsiyanomlarini berish va boshqa ko'plab qonuniy va tartibli ishlар aytib o'tilgan.

Sarimsoq piyoz qimmatli sabzavot ekinlaridan biri bo'lib dunyo miqyosida jami 1,438 mln. hektar maydonda yetishtirilib, o'rtacha hosildorlik 16,9 t/ga ni, yalpi hosil esa 24,255 mln, tonnani tashkil etadi. O'zbekistonda ham hosildorlik yuqori hisoblanadi. Lekin olinadigan hosil miqdori viloyatlar bo'yicha teng taqsimlangan.

**Respublika hududlarida sarimsoq piyoz yetishtirishning
prognoz ko'rsatkichlari. 2022 - y.(t hisobida)**



O'zbekistonda sarimsoq piyozi yetishtirish bo'yicha oldingi o'rnlarda Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlariga to'g'ri kelsa, ohirgi o'rnlarni Jizzax, Xorazm va Qoraqolpog'iston respublikasi hissasiga to'g'ri keladi.

Sarimsoq turli iqlim sharoitiga juda tez va yaxshi moslashadi. U quruq kontinental iqlimli zonada ham, subtropik nam sharoitda ham o'saveradi. Lekin, turli iqlim zonalarida sarimsoqning shu iqlimga moslashadigan mahalliy navlarini ekish kerak.[1.1]

Qoraqolpog'iston respublikasida ham sarimsoq piyozi yetishtirish hajmini orttirish bo'yicha ham ijobjiy ishlar olib borilmoqda. Sarimsoq piyozi yetishtirish respublikada asosan Janubiy tumanlar Amudaryo, Beruniy, Ellikqal'a, To'rtko'l tumanlarining asosan dehqon va tomorqa yer egalari hissasiga to'g'ri keladi. Bu xo'jaliklarda asosan an'anaviy turda mahsulot yetishtirilib shu paytgacha ilmiy asoslangan ishlar amalga oshirilmagan. Bu bo'lsa hosildorlikning pasayishiga, ekin maydonlarining kamayishiga, dalalarda kasallik va zararkunandalarning turlarining ko'payib ketishiga asosan mahsulot sifatining pasayishiga olib keladi.

Kelgusida ishlar ilmiy asosda tashkil qilinadigan bo'lsa ko'plab muammolarning bartaraf qilinishiga erishiladi. Jumladan;

- Ekin uchun mos bo'lgan ekish muddatini va usulini ishlab chiqish bunda hududning tuproq iqlim sharoiti hisobiga maqbul ekish muddati tanlanadi.

- Tuproq iqlim sharoitiga mos bo'lgan nav tanlash bunda boshqa hududlardan yangi navlarni olib kelib introduksiya qilish ko'zda tutiladi;

- Mos bo'lgan ekin ekish sxemasini ishlab chiqish;

- O'simlikni o'g'itlashda anorganik va organik o'g'itlardan samarali foydalanish;

- Ohirgi olingan natijalar hisobiga dexqon, fermer, tomorqa yer egalariga ilmiy tavsiyanomalar bilan ta'minlash;

- Ba'zi kasallik va zararkunandalarni dalada hisobga olib qarshi kurash chora tadbirlarini ishlab chiqish;

- O'simliklarning morfobiologik xususiyatlaridan kelib chiqib hudud uchun yangi "ko'chatlab" yetishtirish usulini ishlab chiqish va joriy etish;

Ayni vaqtda tadqiqot ishlari davom ettirilayotgan bo'lib asosan ekinni ekish muddati, usullari, biostimulyatorlarni qo'llash mahalliy va boshqa hududlardan olib keltirilgan navlar ustida kuzatuvarlar olib borilmoqda.

Sarimsoq piyozdan tajriba uchun kolleksiya namunalarini yig'ish va tanlash maqsadida O'zbekistonning janubiy mintaqasida ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirildi. Xususan Surxondaryo viloyatida joylashgan Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ITI dan 7 ta navi ekish va sinash uchun olib keltirildi. Albatta bu nav namunalariga qo'shimcha sifatida sarimsoq piyozning 2 ta ya'ni Mayskiy VIR va Yujniy fiolet kabi turlari ham qo'shildi. Jami sinov tajribada asosan yettita nav sinalmoqda.

O'zbekistonda sarimsoq piyozning ikki navi Janubiy "Mahalliy pushti" va "Mayskiy VIR" rayonlashtirilgan. Har ikkala nav ham kuzgi, o'zaklovchi "Mayskiy VIR" navi ertapishar, "Janubiy pushti" kechpishar[1.2]

"Mayskiy VIR" – ertapishar nav, ammo piyoz boshlari yetilishi bilanoq yig'ishtirib olinishi maqsadga muvofiq. Chunki bu ish kechiktirilsa, hosil yig'ishda sarimsoq boshlari pallalariga ajralib, sochilib ketadigan bo'lib qoladi, hosil sifati pasayadi. Ertapishar nav, o'suv davri 99-103 kun. Bargi och yashil, eni 3 sm. Piyozboshi yumaloqsimon, ba'zan yassi yumaloqsimon, 15-18 ta bo'lakchalardan iborat, bo'lakchalari sarg'ish, vazni 18-20 gr. Ko'ylik qobig'i 2-3 ta, och binafsha rangli. Degustatsion bahosi achchiq, hosildorligi 11-13 t/ga.

"Yujno-fioletoviy" – kechpishar nav, saqlanishi yaxshi. 2016-yili sarimsoqning "Chidamli" navi Surxondaryo viloyatida ekish uchun Davlat reestriga kiritildi. Ushbu nav ham ertapishar, hosildorligi gektariga 28-30 tonnani tashkil etadi. Kechpishar nav, o'suv davri 110-120 kun. Bargi och yashil, ingichka, uzunligi 30-40 sm, eni 2-2,5 sm. Piyozboshi yassi yumaloqsimon, ko'ylik qobig'i 2-3 ta, pushti rangli, piyozbosh bo'lakchalari sarg'ish, vazni 23-25 g, degustatsion bahosi achchiq. Hosildorligi 10-12 t/ga.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak sarimsoq piyoz – sabzavot ekinlari ichida insonlar tomonidan sevib iste'mol qilinishi bilan birgalikda organizmdagi kasalliklarning oldini olishda ham muhim ahamiyatga egadir. Uni yetishtirishni ilmiy asosda tashkil qiladigan bo'lsak yuqorida ko'rsatilgan natijalarga erishsak bo'ladi. Qo'shimcha tarzda shuni aytish kerakki ekinni yetishtirishda tadqiqotlar Amudaryo tumanidagi fermer xo'jaligida olib borilmoqda. Olinayotgan natijalarga qarab shuni aytish kerakki hozirda tajribada kuzatuvlardan ijobiy natija olinmoqda. Albatta barcha kuzatuvlar to'liq amalga oshiriladi hamda bu ishlar yil sayin takomillashtirib boriladi. Kam iqtisod qilinadigan yangi usullari ishlab chiqarishga joriy etiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. V.I.Zuev., O.Qodirxo'jayev., M.M.Adilov., U.I.Akramov "Sabzavotchilik va polizchilik" Toshkent 2010-y. 303-b.
2. T.E.Ostanaqulov, V.I.Zuev, O.Q.Qodirxo'jaev "Mevachilik va sabzavotchilik" (sabzavotchilik) Toshkent – 2018.